https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Usmanova Z.B.

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi

milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHDA MEDIAMAHSULOTLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

XXI asrda raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimini tubdan yangilash bilan birga, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda mediatexnologiyalardan foydalanishni dolzarb masalaga aylantirdi. Maqolada mediamahsulotlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, imkoniyatlari va pedagogik ahamiyati atroflicha yoritilgan. Multimedia, virtual reallik, infografika, podkastlar va onlayn platformalar kabi mediatexnologiyalar ta’limda vizual qabulni kuchaytirishi, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi, ishtirokchanlik va motivatsiyani oshirishi ta’kidlangan. Shuningdek, Finlyandiya, AQSH va Yaponiya kabi davlatlar tajribasi asosida mediapedagogikaning samarali modellari tahlil qilingan. Maqolada mediamahsulotlardan foydalanishda uchrashi mumkin bo‘lgan muammolar — infoshovqin, feyk axborot, texnik resurslar yetishmasligi va raqamli kompetensiya pastligi kabi cheklovlar ham yoritilgan. Xulosa sifatida mediamahsulotlar ijtimoiy-gumanitar ta’limni modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning ijtimoiy, madaniy va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega ekanligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mediamahsulotlar, mediapedagogika, raqamli transformatsiya, ijtimoiy-gumanitar fanlar, mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, virtual reallik, infografika, raqamli kompetensiya, axborot xavfsizligi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЗОВАНИЯ МЕДИАПРОДУКТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ СОСИАЛНЫХ И ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

В данной стате рассматриваются теоретические основы, педагогический потенсиал и практическая значимост исползования медиапродуктов в просессе преподавания сосиално-гуманитарных диссиплин. Анализируется влияние сифровых медиа — видеоконтента, подкастов, инфографики, инструментов виртуалной реалности и онлайн-платформ — на развитие критического мышления, культурной компетентности и навыков самостоятелного обучения. В работе представлен обзор международного опыта, включая практики Финляндии, США и Японии, а также описаны современные педагогические модели: перевёрнутый класс, медиа-модулное обучение и проектная методика. Сделан вывод, что медиапродукты повышают эффективност обучения, усиливают мотивасию учащихся и способствуют формированию медиаграмотности, необходимой в условиях глобалного информасионного общества.

Ключевые слова: медиапродукты, медиапедагогика, сосиалные науки, гуманитарные науки, сифровое образование, медиаграмотност, информасионные технологии, педагогические инновасии.

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF USING MEDIA PRODUCTS IN TEACHING SOCIAL SCIENCES AND HUMANITIES

This article explores the theoretical foundations, pedagogical potential and practical significance of using media products in the teaching of social and humanities disciplines. The study analyzes how digital media—such as video content, podcasts, infographics, virtual reality tools, and online platforms—contribute to the development of critical thinking, cultural competence, and

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

independent learning skills. The article also examines international practices, including the experiences of educational systems in Finland, the United States, and Japan, and presents modern pedagogical models such as flipped classrooms, media-modular teaching and project-based learning. The findings show that media products enhance educational effectiveness, increase student motivation and help form media literacy, which is essential in today's global information society.

Keywords: media products, media pedagogy, social sciences, humanities, digital education, media literacy, information technologies, pedagogical innovation.

XXI asrda jamiyatning barcha sohalarida kechayotgan raqamli transformatsiya ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalar va yangi talablarni qo'ymoqda. Bugungi kunda bilim olish jarayoni faqat an'anaviy o'quv adabiyoti va auditoriya darslari bilan cheklanib qolmay, balki multimedia, raqamli platformalar, virtual muhit va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan chuqur integratsiyalashmoqda. Xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida mediatexnologiyalarning rivojlanishi ta'lim mazmuni, metodlari va o'quv materialiga nisbatan yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Ijtimoiy-gumanitar fanlar – tarix, falsafa, huquq, psixologiya, madaniyatshunoslik, sosiologiya, siyosatshunoslik kabi yo'nalishlar – inson tafakkuri, madaniy rivojlanish, ijtimoiy jarayonlar va global taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganadi. Ushbu fanlarning mohiyati shaxsning intellektual, ma'naviy, madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Shuning uchun ularni o'qitish jarayonida mediatexnologiyalarning imkoniyatlari keng qo'llanilmoqda: vizual materiallar, tarixiy xronikalar, hujjatli filmlar, podkastlar, interaktiv infografikalar, virtual ekskursiyalar va boshqa turdagi mediamahsulotlar ijtimoiy va gumanitar bilimlarni yanada jonli, idrok etarli va faol o'rganish imkonini yaratadi. Bugungi axborot jamiyatida o'quvchi va talabalarning mediatovushlar muhitida yashashi, ularning kundalik hayotida smartfon, internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar asosiy axborot manbasiga aylangani ta'limda mediatexnologiyalarning ahamiyatini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

yanada oshirmoqda. Mazkur o‘zgarishlar nafaqat o‘quvchi psixologiyasi va axborotni qabul qilish mexanizmlarini, balki ta’limning g‘oyaviy va metodologik asoslarini ham qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Shu bois zamonaviy o‘qituvchi mediasavodxon, raqamli kompetent, media kontentni tahlil qilish va o‘quvchilarga uzatishda metodik jihatdan tayyor bo‘lishi zarur. Xorijiy davlatlar tajribasi mediamahsulotlarning ta’limdagi ahamiyatini yanada tasdiqlaydi. Finlyandiyada mediasavodxonlik umumiy o‘rta ta’limning majburiy kompetensiyalaridan biri sifatida belgilangan; AQSH universitetlarida gumanitar fanlar medialaboratoriyalar bilan integratsiya qilingan; Yaponiyada tarixiy voqealarni virtual reallik texnologiyalari orqali o‘rgatish amaliyoti keng qo‘llaniladi. Bularning barchasi mediatexnologiyalarni ta’lim jarayoniga kiritish orqali yosh avlodda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik, global tafakkur, axborotni baholash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mediamahsulotlardan foydalanish jarayonida muayyan muammo va cheklovlar ham mavjud: axborotning ortiqcha oqimi (infoshovqin), feyk axborot muammosi, mediamanipulyasiya, texnik resurslar yetishmasligi, o‘qituvchilarning raqamli madaniyati pastligi va boshqalar. Bu esa mediapedagogika, mediasavodxonlik va axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida mediamahsulotlarni qo‘llashning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati, o‘quvchi kompetensiyalariga ta’siri hamda xalqaro tajribadagi samarali modellarni ilmiy tahlil qilishdan iborat. Mediatexnologiyalar ta’limda qanday funksiyalarni bajarishi, pedagogik imkoniyatlari, samarasizlik omillari va kelgusi istiqbollarini kompleks o‘rganishni ko‘rsatadi.

Shunday qilib, mediamahsulotlar ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda yangi imkoniyatlar, innovasion metodlar va interaktiv muhit yaratish orqali ta’limning mazmun va shakl jihatdan modernizatsiya qilinishiga xizmat qiladi. Ular orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki ijtimoiy voqelikni tahlil qilish, manbalarni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

baholash, axborotni saralash, demokratik va madaniy qadriyatlarni anglash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Bu esa global axborot jamiyatida raqobatbardosh bilimli avlodni shakllantirishning muhim omilidir. Bu o‘rinda bizga mediapedagogika yordamga keladi. Mediapedagogika — ta’lim jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanishni o‘rganuvchi fan bo‘lib, media vositalari orqali shaxsni intellektual, madaniy va ijtimoiy rivojlantirishni maqsad qiladi. Unga quyidagi yo‘nalishlar kiradi:

- media vositalardan foydalanish metodikasi;
- mediasavodxonlikni oshirish;
- raqamli kompetensiyalarni shakllantirish;
- o‘quvchida mustaqil axborot izlash, tahlil qilish, baholash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Aytib o‘tishimiz joizki bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar ta’limda quyidagi mediamahsulotlar keng qo‘llaniladi:

- Video kontent – hujjatli filmlar, intervyular, tarixiy xronikalar.
- Audio materiallar – podkastlar, radiodasturlar, ma’ruzalar yozuvlari.
- Interaktiv infografika – diagrammalar, vizual modellar, taymlaynlar.
- Virtual reallik (VR) – virtual tarix darslari, muzeylar.
- Sosial tarmoq mediakontenti – ijtimoiy muhokamalar, trend tahlillari.
- Onlayn platformalar – Coursera, YouTube Edu, Google Arts & Culture.

Bunday mediamahsulotlar o‘quv jarayonini multimodal qilish, axborotni tez, aniq va qiziqarli tarzda yetkazish imkonini beradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda mediamahsulotlarning roli qo‘yidagicha:

Tafakkur va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi rol bu -mediamateriallar ijtimoiy voqelikni turli nuqtai nazardan namoyon qiladi. Bu talaba yoki o‘quvchida quyidagicha nomayon bo‘ladi:

- holatni tahlil qilish,
- dalillar o‘rtasida bog‘liqlik topish,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

- mediamanipulyasiyani aniqlash,
- axborotning ishonchliligiga baho berish kabi muhim media-fikrlash kompetensiyalarini paydo qiladi.

Ma'naviy va madaniy kompetensiyalar shakllanishidagi ahamiyati esa ko'yidagilarda nomayon bo'ladi:

Tarixiy videoxronikalar, etnografik filmlar, madaniy meros haqidagi interaktiv platformalar madaniyatlar xilma-xilligini qabul qilish, bag'rikenglik va global fuqarolik tafakkurini rivojlantiradi.

Ta'limda esa bu - motivatsiyani oshirish orqali mediamahsulotlar vizual ta'sirchanligini ko'rsatadi:

- darslarni qiziqarli qiladi,
- o'quvchilarning ishtirokchanligini oshiradi,
- muloqot va muhokama madaniyatini mustahkamlaydi. Bu esa ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmunini yanada amaliy va tushunarli qiladi.

Shu o'rinda chet el tajribasi haqida aytib o'tishimiz zurar. Masalan: Finlyandiyada mediasavodxonlik maktab ta'limida asosiy fanlar qatorida kiritilgan. Tarix va sotsial fanlar darsida o'quvchilar ommaviy axborot manbalarini tahlil qiladi, manipulyativ mediatexnologiyalarni baholashni o'rganadi. AQSHdagi mashxur Garvard, MIT va Stenford kabi universitetlarda gumanitar fanlar medialaboratoriyalarda o'qitiladi; podkast ishlab chiqish, tarixiy hujjatlar asosida film yaratish kabi amaliyotlar darsga integratsiya qilingan. Yaponiya ta'lim tizimida esa, tarixiy voqealarni VR orqali qayta namoyon qilish orqali o'quvchilarda "uchinchi shaxs tajribasi"ni shakllantirish metodikasini qo'llaydi. Shuning uchun mediamahsulotlardan foydalanish nafaqat zamonaviy ta'lim talabi, balki ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmun va metodologik rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida qaralishi lozim. Xalqaro amaliyot shundan dalolat beradiki,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mediatexnologiyalarni ta’lim bilan uyg‘unlashtirish kelajakda samarali, mazmunli va innovasion o‘quv muhitini shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Xar bir narsada yaxshi va yomon tomonlar bo‘lgani kabi myediamahsulotlardan foydalanishning ham afzalliklari va muammolari bor bular quyidagilarda namomayon bo‘ladi:

- Axborotni tez qabul qilish va vizual tushunish.
- Motivatsiya va qo‘shimcha qiziqishning oshishi.
- Talabaning mustaqil ta’lim olishini rag‘batlantirish.
- Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.
- Global axborot makonida faol fuqarolik pozisiyasi.

Muammolar va cheklovlar

- Axborotning ortiqcha oqimi (infoshovqin).
- Feyk axborot va mediamanipulyasiya.
- Texnik resurslarning yetarli emasligi.
- O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari pastligi.
- Avtorlik huquqi bilan bog‘liq masalalar.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchilari uchun quyidagi tavsiyalarni taklif qilamiz:

1. Mediamateriallarni manba sifatida tanlashda ularning ishonchliligini tekshirish.
2. Videolarni qisqa, mazmunli va o‘quv maqsadiga mos tanlash.
3. Talabalarni mediamaterialni tanqidiy tahlil qilishga yo‘naltirish.
4. Loyiha va amaliy topshiriqlar orqali media ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
5. Xorijiy onlayn-platformalardan foydalanish (Coursera, Khan Academy, Google Arts & Culture).
6. VR, AR, interaktiv infografika kabi innovasion texnologiyalarni asta-sekin integratsiya qilish.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shulardan kelib chiqqan xolda xulosa qiladigan bo‘lsak, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda mediamahsulotlardan foydalanish bugungi raqamli jamiyatning asosiy talablaridan biri sifatida shakllandi. XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, media hamda raqamli kommunikatsiya vositalarining turfa xil bo‘lishi bilim olish jarayonini tubdan o‘zgartirib, an’anaviy pedagogik yondashuvlarga murakkab, biroq samarali innovasion yechimlarni joriy etdi. Shu nuqtai nazardan mediamahsulotlar — video, audio, infografika, virtual reallik, podkast, onlayn platformalar — ijtimoiy-gumanitar fanlarni zamonaviy talablar asosida o‘qitishning strategik instrumentlari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mediamaxsulotlar bilim olish jarayonida bir nechta muhim vazifalarni bajaradi. Birinchidan, mediamahsulotlar ta’limda ko‘rgazmalilik va vizual qabulni kuchaytirib, o‘quvchilarga murakkab tarixiy, siyosiy, madaniy va falsafiy jarayonlarni yanada tushunarli va ta’sirchan tarzda qabul qilish imkonini beradi. Bu ayniqsa tarix, madaniyatshunoslik, psixologiya va siyosatshunoslik kabi fanlarda muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, mediamahsulotlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahlil, mediasavodxonlik va manba bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy axborot makonida feyk axborotlar, mediamanipulyasiya va axborot hurujlari ko‘paygan bir sharoitda mazkur kompetensiyalar fuqarolik pozisiyasi, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Uchinchidan, mediatexnologiyalar ta’limning motivasion mexanizmlarini faollashtirib, o‘quvchi yoshlar qatnashuvchanligini oshiradi, interaktivlikni kuchaytiradi, muammoli vaziyatlarni modellashtiradi va qo‘llanilayotgan materialni faol idrok etishga undaydi. Bu esa ijtimoiy-gumanitar ta’limning mazmun jihatidan boyishi, amaliyot bilan uzviy bog‘lanishi va faol o‘quv muhitini yaratishga zamin tayyorlaydi.

To‘rtinchidan, maqolada tahlil qilingan xorijiy tajribalar — Finlyandiyadagi mediasavodxonlik ta’limi, AQSH universitetlaridagi mediapedagogika laboratoriyalari, Yaponiyadagi VR-simulyasiya asosidagi ta’lim jihatlari — media

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

resurslari ta’lim sifati va mazmuniga katta ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Bu tajribalar media asosidagi integrativ o‘qitish modellarining xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimida keng joriy etilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, mediamahsulotlardan foydalanish nafaqat ta’limni qiziqarli qiladi, balki ijtimoiy fanlarning mazmunan boyishini, yangi metodik yondashuvlarni shakllanishini, ta’limni global axborot inqilobi sharoitiga moslashishini ta’minlaydi. Mediamahsulotlar ijtimoiy-gumanitar fanlardan ta’lim berishning samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida ta’lim tizimida ustuvor o‘rin egallaydi. Ularning to‘g‘ri va metodik jihatdan asoslangan holda qo‘llanilishi talabalarda:

- tanqidiy va mustaqil fikrlash,
- mediasavodxonlik,
- madaniy va ijtimoiy kompetensiyalar,
- global dunyoqarash,
- axborot bilan ishlash ko‘nikmalari

kabi muhim ta’limiy natijalarni shakllantiradi.

Shu bilan, mediapedagogik yondashuvlar jamiyatning raqamli taraqqiyotini aks ettirgan holda, ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmun va shakl jihatdan modernizatsiya qilinishida hal qiluvchi omildir. Ta’lim tizimining kelgusi rivojlanish bosqichida mediamahsulotlarning o‘rni yanada kengayadi va ulardan foydalanish strategik ahamiyatga ega bo‘lib borishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers**.** Paris: UNESCO, 2021.
2. Mayer, R. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2021.
3. Nazarov B. “Mediasavodxonlik va zamonaviy axborot texnologiyalari”. – T.: InfoPress, 2021.
4. Usmanova Z. “Mediamaxsulotlar muxim ta’lim-tarbiyaviy vosita sifatida” T.: halqaro ilmiy anjumanlar to‘plami 2025-yil 3-iyul.